

**Tarix darslarida O'zbekiston respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlaridan
foydalanish**

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrası o'qituvchisilari

I.Botashev., I. Tojiyeva

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, o'z tarixini qayta tiklash ishlariga katta e'tibor qaratildi. "Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan **ruhiy** quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur"¹. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, tarixni bilgan odam hayotga orzu-umid, ishonch bilan yashaydi. Tarix bilimining ilk kurtaklari esa maktab partasida, tarix darslarida uyg'onadi. Shu bois tarix o'qituvchisi dars jarayonida faqat darslik bilan qanoatlanmay, qo'shimcha adabiyotlardan, Prezident asarlaridan foydalansa, dars mazmunini yanada boyitadi. Natijada o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqish yanada ortadi. Albatta, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish o'qituvchidan katta tajriba talab qiladi. Negaki, bir soatlik darsda butun bir asarni o'rganish imkoniyati yo'q. Shuning uchun asardan darsga mos asos tariqasida misollar keltirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa dars mazmunini boyitishda o'qituvchiga yordam beradi.

Bu sohada asosan I.A.Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "Bunyodkorlik yo'lidan", "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin", "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida", "Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir" kabi asarlaridan foydalanish ijobiy samaralar berishi shubhasiz.

Masalan, 6-sinf "O'zbekistan tarixi" darsida "Zardo'shtiylik" mavzusini o'rganish jarayonida I.A. Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asaridan o'quvchilarning yoshiga qarab iqtibos tariqasida "eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto" ayni zamonda bu qadimgi o'lkada buyuk davlat, buyuk

¹ I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: "O'zbekiston", 1998 y., 21-b.

madaniyat, buyuk ma'naviyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi"² degan so'zlarini o'qib berish darsga qo'shimcha ilmiy asos bo'la oladi.

Xuddi shu mavzuni o'tishda Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asaridagi quyidagi fikrlarni keltirishimiz mumkin:

"Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, ahloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan "Avesto" deb atalgan bebaho ma'naviy obida alohida o'rin tutadi.

Misol uchun, "Avestoning tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" degan tamoyilni oladigan bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini ko'rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya'ni ezgu niyat, so'z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g'oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma'naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog'liq, nechog'lik mustahkam hayotiy asosga ega ekanligi ayniqsa e'tiborlidir"³.

O'zbekiston Yuneskoga a'zo bo'lganidan so'ng Avestoning vatani O'zbekiston, qolaversa, Xorazm shahri deb e'lon qilindi. "Avesto"ning 2700 yilligi 2001- yilda yurtimizda keng nishonlandi. O'quvchilarga ushbu mavzuni singdirishda "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asaridagi ilustratsiyalardan ham foydalanish o'quvchilarda dunyoqarash va fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Quyidagi berilgan rasm orqali o'quvchilar yurtimizda "Avesto" yodgorligi qayerda joylashganini o'rganadilar va xotiralarida saqlaydilar. Ko'rgazmali qurollar, rasmlar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, xotirasini mustahkamlaydi, xotira mashqlarini bajarganda ushbu rasm nimaga bag'ishlanganini aytib bera oladi.

² I.A. Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", 10-bet

³ I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asari. T.: 2008 , 31-32 betlar.

VII sinf “O‘zbekiston tarixi”da o‘rta osiyolik mutafakkirlar ilm-fan ravnaqi mavzusini o‘tishda Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asaridagi buyuk allomalar haqidagi fikrlarini o‘quvchilarga videotasmalar orqali yoki ushbu kitobdan mutolaa qilib tushuntirilsa, dars yanada qiziqarliroq bo‘ladi va o‘quvchilarda Prezident asarlariga qiziqish uyg‘onadi. Bu borada Prezidentimizning “Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo‘shgan betakror hissasi to‘g‘risida so‘z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida «Muhaddislik sultoni» deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilgan olamiz. Bu mo‘tabar zot merosining gultoji bo‘lmish eng ishonchli hadislar to‘plami “Al jome’ as-sahih” kitobi islom dinida Qur’oni Karimdan keyin ikkinchi muqaddas manba bo‘lib, ahli islom e’tiqodiga ko‘ra u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug‘i hisoblanadi. Yana bir ulug‘ ajdodimiz Ahmad Farg‘oniy insoniyat tarixidagi ilk uyg‘onish davrining eng zabardast va kuchli namoyandasi, o‘z zamonasining fundamental fan asoschilaridan biri sifatida bashariyatga dunyoqarashi va ma’naviyatining rivojlanishiga beqiyos ta’sir ko‘rsatdi. Allomaning “Astronomiya asoslari haqida kitob” nomli asari XII asrdayoq lotin va ivrid tillariga tarjima etilgani ham bu fikrning dalilidir”⁴

Buyuk allomalarimiz haqida o‘quvchilar bilan fikr yuritganda Prezidentimizning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asaridagi Alisher Navoiyga yurtboshimizning bergan ta’riflaridan hamda ushbu kitobdagi ilustatsiyalardan foydalanish yanada samaraliroq bo‘ladi.

VII sinflardagi "Amir Temur va temuriylar davlati" bobini o‘tish jarayonida ham shu asarda Amir Temur shaxsi haqida aytilgan: "u birinchi navbatda **ulug‘** bunyodkor shaxs edi. Samarqanddagi obidalarini, Shahrisabzdagi yodgorliklarni kim qurdi? Turkistondagi Yassaviy maqbarasini kim tikladi? Amir Temur va uning avlodlari zamonida Afg‘oniston, Eron, Hindiston hududlarida amalga oshirilgan obodonchilik, me'morchilik ishlarini aytmaysizmi"⁵ so‘zlari o‘quvchi nazarida

⁴ I.A.Karimov «Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch» asari. T.: 2008. 40-42 betlar

⁵ I.A.Karimov «Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch» asari. T.: “Ma’naviyat”. 2008. 45-bet

Amir Temur siymosining buyukligini namoyon etib, milliy istiqlol g'oyasini singdirishga xizmat qiladi.

1993-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan Toshkent shahrida Amir Temur bobomizga suvoriy haykal o'rnatildi va Temur tuzuklari nashr qilindi. Bu haqda "Temur tuzuklari"ni har gal o'qir ekanman, huddiki o'zimga qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman. O'z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma'naviyati uchun bugun ham oziq bo'ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekanligiga ishonch hosil qilganman"⁶.

Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonni dunyoga tanitishda Prezidentimiz tomonidan Amir Temur shaxsi qayta tiriltirildi. Toshkent, Samarqand, Shahrisabz shaharlarida bobomizning haykallari o'rnatildiki, bu ham tarix darslarida o'quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik hislatlarini singdirishda eng samarali vosita hisoblanadi. Prezidentimizning bugungi kunda O'zbekiston shaharlarini yuksalishida temuriylar davridagi me'morchilik uslublarini qayta tiklashi zamonaviy arxitektura uchun ham maktab vazifasini o'tayapti, ham yurtimiz shaharlariga ko'rk bag'ishlab turibdi. Prezidentimizning «Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir» asarida "Buyuk Britaniyaning nufuzli "Ekonomist" jurnalining e'tirof etishicha, Toshkent shahri obodligi va yashash uchun qulayligi jihatidan dunyo reytingida 140 ta shahar ichida 58-o'rinda, AQSHning "The Huffington Post" nashri tomonidan Samarqand shahri "Dunyoning, albatta, borib ko'rilishi kerak bo'lgan 50 shahri" ro'yxatiga kiritilgani..."⁷ biz va o'quvchilarda faxr-iftixor tuyg'ularini shakllantiradi.

Shu sinfdagi "Mo'g'ullarning bosqinchilik yurishlari" mavzusini o'tish jarayonida esa bosqinchilik yurishning bosh sababchisi Chingizxon haqida gapirganda quyidagi satrlar tilga olinadi: "...endi Chingizxon shaxsini bu mezonga solib ko'raylik. Undan vayron etilgan shaharu - qishloqlardan bo'lak qanday iz qoldi? XII asrda Samarqandda yondirib tashlangan, Buxoroni, Urganchni yer bilan

⁶ Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch». T.: "Ma'naviyat".2008 y, 45 bet.

⁷ Karimov I.A. «Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir» asariri. T.: "O'zbekiston". 2015 y. 10-12 betlar.

yakson qilgan. O‘zi Chingizxondan yaxshi biron bir meros qolganmi?" Bu o‘quvchilar ongida dushmanga nisbatan nafrat uyg‘otishi shubhasiz.

1999- yilda buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberding 800 yilligi nishonlandi. 2000-yil 30-avgustda “Jaloliddin Manguberdi ordeni” ta’sis etildi. Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdiga haykal o‘rnatildi. Mana shu yodgorlik orqali ham tarix darslarida yoshlarimizning vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Tarix darslarida o‘qituvchilar buyuk allomalarimiz haqida fikr bildirganda, qo‘shimcha ma’lumot sifatida Prezidentimizning Ahmad al-Farg‘oniy haykalining ochlishiga bag‘ishlangan marosimda so‘zlagan nutqidan foydalanilsa, yanada qiziqarliroq bo‘ladi.

“Ahmad al-Farg‘oniyning olamshumul merosi dunyo madaniyati va ma’rifati xazinalaridan biri bo‘lib, milliy salohiyatimiz, milliy tafakkurimiz ko‘lami va qudratining isbotidir. Ahmad al-Farg‘oniy kishilik tarixidagi ilk Uyg‘onish davrining eng zabardast va yorqin namoyandalaridan biri, o‘z zamonasining fundamental fani asoschilaridan edi. Uning merosi insoniyatning yangi ilm cho‘qqilariga ko‘tarilishiga sababchi bo‘ldi, butun ma’rifiy dunyo olimlari uchun dasturalamal bo‘lib xizmat qildi. Farg‘onalik bu fozil zotning “Astronomiya asoslari” nomli shoh asari o‘n ikkinchi asrdayoq lotin va ivrit tillariga tarjima etilgan edi.

Yevropada kitob nashr etish boshlangan XV asrda esa bu asar Italiyada, keyinchalik Germaniya, Fransiya, Gollandiya va AQSH kabi mamlakatlarda qayta-qayta chop qilingani uning naqadar yuksak ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi. Inson tafakkurining bebaho mahsuli bo‘lgan bu kitob asrlar davomida astronomiya fani bo‘yicha o‘ziga xos qomus vazifasini o‘tagan. Dunyoning eng nufuzli dorilfununlarida undan asosiy darslik sifatida foydalanib kelingan. Ahmad al-Farg‘oniyning Yerning sharsimon shaklga egaligi borasidagi qarashlarini oradan sakkiz yuz yil o‘tib amalda isbotlagan mashhur sayyoh Xristofor Kolumb: “Yer meridianining bir darajasi miqdori haqidagi al-Farg‘oniy hisoblarining to‘g‘riligiga to‘la ishonch hosil qildim”, - degan dastxat qoldirgan. Bu e’tirof bobokalonimiz, yanada kengroq aytсам, millatimiz ilmiy salohiyatiga berilgan munosib bahodir.

Ahmad al-Farg'oniyni astronomiya fani rivojida nufuzi shu qadar ediki, alloma bobomizning nomi “Yer” kurrasidagina emas, samoda ham abadiy shuhrat topdi. O'n oltinchi asrdayoq oydaagi kraterlardan biriga uning nomi berilgan edi. Atoqli astronom Yan Geveliy tomonidan 1647-yil nashr qilingan «Selenografiya» kitobida oydaagi kraterlardan ikkitasi ikki buyuk vatandoshimiz — Ahmad al-Farg'oniyy va Mirzo Ulug'bek nomi bilan ataladi.

...Bugun ozod yurtimizda Ahmad al-Farg'oniyy kabi zotlar yoqib ketgan ilm mash'ali yangitdan porlay boshladi. Biz o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasini, ularning zamonaviy ilg'or bilimlarga ega bo'lgan holda ulug' bobokalonlarimiz merosiga munosib bo'lishlarini davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi, deb bilamiz.

Bu zotning shu yerda tug'ilgani, tarbiya topib voyaga yetgan bu yurtni barchamiz uchun yanada aziz va mukarram qiladi.

Bu zot qayerda yashagan bo'lmasin, xoh Bag'dodda, xoh Damashqda, xoh Qohirada o'z ilmiy kashfiyotlari bilan shuhrat topgan bo'lmasin, ishonamanki u hamisha tug'ilgan yurtini sog'inib yashagan. Ona, Vatanining muhabbati va sog'inchini bir umr qalbida saqlab yurgan. Bu tuyg'u nafaqat ulug' insonlarga, balki iymonli, diyonatli har bir odamga xos xususiyatdir»⁸

Prezident Islom Karimovning Imom al-Buxoriy yodgorligi majmuasining ochilishiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqidan o'quvchilarga havola qilishda qo'yida so'zlaridan foydalanish samaralidir.

“... Savob - ulug' insoniy fazilat, yuksak islomiy qadriyatlardan biridir. Mening komil ishonchim shuki, savob ishni har kim qilishi kerak. Savobli amallar qilish esa xalqimizga xos azaliy xislatdir. Savobli ishlarni qilgan odamga, uning el-u yurtiga, albatta, Allohning rahmatlari yog'iladi. Muqaddas qur'oniyy oyatda ta'kidlanganidek, «Yaxshilikning mukofoti faqat yaxshilikdir». Biz ezgu ishlarni qancha ko'p qilsak, ulug' ajdodlarimizning izzat-ikromini joyiga qo'ysak, ularning tabarruk nomlarini butun dunyoga tarannum etsak,

⁸ Prezidentimizning Ahmad al-Farg'oniyy haykaliining ochilishiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqi. 1998-yil 24-oktabr.

Yaratganning o'zi bizni balo-qazolardan asraydi, bizga kuch-qudrat ato etadi, yo'limizni ochib beradi.

Alloh taolo qaysi yurtda, qaysi tuproqda mana shunday ulug' zotlarni dunyoga keltiradi?

Parvardigori olam buyuk zotlarni O'zi aziz etgan joylardagina dunyoga keltiradi. Bunday yurtlar esa yer yuzida sanoqli. Biz cheksiz shukronalik bilan aytamizki, ona Vatanimiz Allohning nazari tushgan ana shunday muqaddas diyordir.

Butun umrini iymon va e'tiqod, vatanparvarlik va insonparvarlik, poklik va halollik, ilm va ma'rifat, adolat va diyonat yo'lida fido etgan zotlarning mo'tabar xoklari makon topgan zamingina muqaddasdir. Agar shunday insonlar bo'lmasa, ular dahosining nafasi sezilib turmasa, har qanday zamin oddiy tuproq bo'lib qolaveradi.

...Imom al-Buxoriy hazratlari nafaqat o'zbek xalqi, balki butun musulmon olamining faxr-iftixoridir. Ul tabarruk zotning hayoti tom ma'nodagi ilmiy va insoniy jasorat, bukilmas iroda, so'nmas e'tiqod timsolidir”⁹.

Prezidentimizning barcha asarlarida buyuk allomalarimiz haqida fikr bildirilgan bo'lib, uni o'quvchilarga tushuntirishda quyidagi tartibda slaydlar orqali havola qilishni tavsiya etamiz.

- * **Muhammad al-Xorazmiy (783-850)**
- * **Ahmad al-Farg'oniy (797-865)**
- * **Abu Nasr Forobiy (873-950)**
- * **Abu Ali ibn Sino (980-1037)**
- * **Abu Rayhon Beruniy (973-1048)**
- * **Abu Abdulloh al-Xorazmiy (vafoti 997)**
- * **Ismoil Jurjoni (1042-1136)**
- * **Mahmud Chag'iniy (XII-XIII asr)**
- * **Mahmud az-Zamaxshariy (1075-1144)**

⁹ Prezident Islom Karimovning Imom al-Buxoriy yodgorligi majmuasining ochilishiga bag'ishlangan marosimda sozlagan nutqi. 1998-yil 24-oktabr.

Abu Bakr al-Xorazmiy (935-993), Abu Abdulloh Rudakiy (860-941), Abu Mansur As-SaoUbiy (961-1038), Nosir Xisrav (1004-1088), Yusuf Xos Hojib (XI asr), Mahmud Koshg'ariy (XI asr), Daqiqiy (vafoti 977), Firdavsiy (934-1020), Ahmad Yugnakiy (XII asr), Sobir Termiziy (1089-1147), Rashiduddin al-Votvot (1114-1184).

TARIXCHILAR

- * Abu Bakr Narshaxiy (899-959)**
- * Abulfazl Bayhaqiy (995-1077)**
- * Abu Nasr Utbiy (961-1040)**
- * Gardiziy (X-XI asrlar)**
- * Majiddin Adno (X asr)**
- * Istaxriy (IX-X asr)**
- * Ibn Havqal (X asr)**
- * Nizomulmulk (XI asr)**
- * Imom al-Buxoriy (810-870)**
- * Imom Muslim (819-874)**
- * Imom Abu Dovud (817-880)**
- * Iso at-Termiziy (824-894)**
- * Imom Ahmad al-Nasoiy (830-915)**
- * Imom ibn Mojja (834-886)**

FAQIHLAR

- * Qaffol ash-Shoshiy (903-976)**
- * Abu Mansur al-Moturidiy (870-944)**

TASAVVUFCHILAR.

- * Burhonuddin al-Marg'inoniy (1123-1197)**
- * Yusuf Hamadoniy (1048-1140)**
- * Ahmad Yassaviy (1041-1167)**
- * Abduxoliq G'ijduvoniy (1103-1179)**
- * Najmiddin Kubro (1145-1221)**

Quyida 7-sinflar uchun 1 soatlik dars ishlanmasi berilgan bo'lib, o'qituvchilarga dars jarayoniga qo'llash tavsiya etiladi.

Fan O'zbekiston tarixi

7-sinf

Mavzu: "Temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutishi"

Darsning maqsadi:

Temuriylar davlatining inqiroziga sabab bo'lishidagi shart-sharoitlar, toju - taxt uchun kurash, siyosiy parokandalik, shahzodalar o'rtasidagi nizolar va inqirozning oqibatlari to'g'risida ma'lumotlar berish

Darsning vazifalari:

O'zbek davlatchiligi tarixida iztirobli davrlar ham bo'lganligiga qaramay, uning boy va chuqur ildizlari mavjudligini uqtirish hamda qadimiy boy tariximiz bilan faxrlanish tuyg'usini kuchaytirish

Temuriylar davlatining katta hududda joylashuvi, davlatning 100 yil davomida amal qilishini tushuntirish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish

Darsning jihozlanishi va darsga tayyorgarlik ko'rish

1. Darslik, qo'shimcha adabiyot (Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari)
2. Temuriylar davlati xaritasi
3. Tarqatma materiallar (topshiriqlar yozilgan kartochkalar) (ilova qilinadi)
4. Sinf xonasini guruhlariga bo'lib ishlashga tayyorlash (Sinf o'quvchilarining soniga qarab 4, 5 guruhga bo'lib, stollarni qo'yib chiqish)
5. Guruhlarni baholash uchun har bir guruhga quyidagicha jadval tayyorlanadi:

№	Guruhlarga savollar	To'g'ri va to'liq javob	Qisman to'g'ri javob	Javob noto'g'ri
1.	Siyosiy tarqoqlik va			

	parokandalik sabablari			
2.	Mavzudagi shaxs nomlari			
3.	Muhim voqealar			
4.	Mavzudagi muhim sanalar			

Izoh: to'g'ri va noto'g'ri javoblar ball orqali belgilanadi.

Dars turi: Aralash

Dars jarayonida qo'llaniluvchi metodlar: "Bingo", guruhlarda ishlash

Sinfni guruh bilan ishlashga tayyorlash

O'quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash uchun dars boshlanishidan oldin ularga Temuriy shahzodalar (Shohruh Mirzo, Sulton Abu Said, Sulton Ahmad, Husayn Boyqaro) nomlari yozilgan kartochkalar tayyorlanadi.

O'quvchilar shahzodalar nomlari yozilgan kartochkalarni tanlab olib, xuddi shunday nomlar yozib qoyilgan stolga borib joylashib o'tiradilar.

Darsning blok chizmasi

№	Dars bosqichlari	Ajratilgan vaqt
1.	Tashkiliy qism	3 minut
2.	O'tilgan mavzuni takrorlash	7 minut
3.	Yangi mavzuni guruhlar bilan ishlash	15 minut
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 minut
5.	Baholash	3 minut
6.	Uyga vazifa	2 minut

Darsning borishi

I Tashkiliy qism:

O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish, O'zbekistonda va dunyoda sodir bo'layotgan yangiliklar bilan tanishtirish

II O'rganilgan mavzuni

(“Ulug'bek ma'rifatparvar davlat arbobi”) takrorlash

- 1) O'tgan mavzu boyicha guruhlar berilgan savolga javobni birgalikda tayyorlaydilar
- 2) Taqdimot qiladilar
- 3) Bir-birlarini baholaydilar

Topshiriqlar:

“Shohruh Mirzo” guruhiga

“Sulton Abu Said” guruhiga

“Sulton Ahmad” guruhiga

“Husayn Boyqaro” guruhiga

O'quvchilar topshiriqlarni o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo'yilgan vatman qog'oziga yozib chiqqanlaridan so'ng, doskaga chiqib taqdimot qiladilar.

Bunda quyidagi

Sanalar	Izohi
1410 - yil 20 - aprel	
1413 - yil	
1414 - yil	
1449 - yil oktabr	

Har bir guruhning javobini qolgan guruhlar o'zlariga belgilab, baholab boradilar. O'qituvchi guruhlar taqdimotidan so'ng barcha guruh javoblarini umumlashtiradi va o'tgan darsga yakun yasaydi.

III Yangi dars (“Temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutishi”)

O'qituvchi yangi mavzuni mavzuga oid xarita va suratlardan foydalangan holda kichik ma'ruza orqali tushuntiradi (surat va ma'ruza ilova qilinadi).

Ma'ruza quyidagi tartibda tushuntiriladi:

- 1) Siyosiy barqarorlik
- 2) Saltanat parchalanishining boshlanishi
- 3) Xurosondagi ahvol
- 4) Xulosa

IV Yangi mavzuni mustahkamlash uchun “Bingo” usulidan foydalanish

Buning uchun o'qituvchi tomonidan har bir o'quvchiga atamalar yozilgan varaqalar tarqatiladi.

Fikrimiz so'ngida esa o'qituvchilarga o'z o'quvchilari mamlakatimiz tarixiga qiziqish bilan qarashi ko'p jihatdan ularning bilimi va mahoratiga bog'liq ekanini eslatib o'tmoqchimiz. O'quvchilarning kitoblardan to'g'ri foydalanishlari uchun doim o'zlarini mas'ul deb bilsinlar. Quyida biz o'qituvchilarga tarix fanlarida faqat tarix darsliklari bilan cheklanib qolmasdan, keng foydalanishlari uchun bir nechta adabiyotlarni tavsiya etamiz, zero bu asarlar tarixni o'rganish va dunyoqarashni kengaytirish maqsadi uchun xizmat qiladi: